

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF PROSECUTORIAL INVOLVEMENT IN THE HANDLING OF JUVENILE CASES IN CIVIL COURTS AND ITS RELEVANCE TODAY

Yakubova Guli Kasimboy kizi

2nd year student of the Law Enforcement Academy,
Master's degree in "Prosecutorial Activities" specialty,
correspondence form of education
E-mail: karomatbekcanov@gmail.com

Abstract. This article discusses the concept of prosecutor participation in the consideration of cases related to minors in civil courts, which is currently relevant, and its significance today, the changes in regulatory legal acts being implemented in this area today, the growth trend of civil cases related to minors, and the need to increase the effectiveness of prosecutor participation in the consideration of cases related to minors in civil courts, which was carried out through the study and analysis of national legislative documents and judicial practice.

Keywords: the concept of prosecutorial participation in hearing cases involving minors in civil courts, the growth trend of civil cases involving minors, guardianship, sponsorship, adoption, etc.

VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Yaqubova Guli Qosimboy qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi
"Prokurorlik faoliyati" mutaxassisligi sirtqi ta'lim shakli 2-kurs tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda o'z dolzarbligi bilan ajralib turadigan, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni fuqarolik sudlarida ko'rishda prokuror ishtirokining tushunchasi, va uning bugungi kundagi ahamiyati, bugungi kunda ushbu sohada amalga oshirilayotgan normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq fuqarolik ishlarining o'sish tendensiyasi, fuqarolik sudlarida voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni ko'rishda prokuror ishtirokining samaradorligini oshirish zarurligi milliy qonunchilik hujjatlari hamda sud amaliyotini o'rganib tahlil qilish orqali amalga oshirilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni fuqarolik sudlarida ko'rishda prokuror ishtirokining tushunchasi, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq fuqarolik ishlarining o'sish tendensiyasi, vasiylik, homiylik, farzandlikka olish va boshqalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N41>

Kirish. Bugungi raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan bir asrda sud tizimi ham yildan yilga takomillashtirilib borilyapti. Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'rilishida prokurorning ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham ilgari qaraganda yetarlicha o'zgarmagan bo'lsada, umuman fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki bilan bog'liq qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda prokurorning ishtiroki aynan ushbu sudlar tomonidan chiqariladigan har bitta hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari va buyruqlarining qonuniyligi va ularning qanchalik darajada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga to'g'ri kelishi ustidan nazoratni amalga oshirishida yaqqol ko'zga tashlanadi va sudda odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot natijalari. Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni fuqarolik sudlarida ko'rishda prokurori ishtiroki bu- prokurorning aynan voyaga yetmaganlar bilan bog'liq fuqarolik ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida e'tirof etilib, sudda o'z huquq va erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan voyaga yetmagan shaxslarning buzilgan huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan murojaat qilishi. Bundan tashqari alohida Fuqarolik protsessual kodeksida belgilab qo'yilgan asoslarda va shakllarda bevosita fuqarolik sudlaridagi voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarda ishtirok etishi va o'z fikrini bildirishi, sud hujjatlarining noqonuniyligi, asoslilikiga shubha tug'ilgan taqdirda yuqori instansiya sudlariga prokuror nazorat hujjatlaridan biri hisoblangan protest bildirish huquqi demakdir.

O'zbekiston Respublikasining **"Prokuratura to'g'risida"** gi qonunining **4-moddasida** aynan prokuratura organlarining asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib, bu yo'nalishlardan bittasi- prokuratura organlari xodimlarining sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etishidir.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining **"Prokuratura to'g'risida"** gi qonunning **33-moddasida** "Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi. Prokuror sudda dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, qonunning qo'llanishi xususida o'z fikrini bildiradi [1].

Ishlar sudlarda ko'rilayotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanadi".

Shuningdek, amaldagi O'zbekiston Respublikasi **Oila kodeksining 67-moddasi 2-qismida** hamda O'zbekiston Respublikasining **"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"**gi Qonunning **11-moddasi 1-2-qismlarida** "Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror, sud tomonidan amalga oshiriladi. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshirilishi belgilangan [2].

Shuni ham aytish joizki, amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksining **50-moddasi 3-qismida** "Agar fuqaro sog'lig'ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega

bo'lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega" [3].-deb qayd etilgan.

Prokuror fuqarolik protsessida amaldagi O'zbekiston Respublikasining **Fuqarolik protsessual kodeksining 51- moddasida** prokurorning protsessual huquq va majburiyatlari [3] keltirib o'tilgan. Xususan, sudga voyaga yetmaganlarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida da'vo ariza (ariza) bergan prokuror da'vogarning barcha protsessual huquqlaridan foydalanadi. Ya'ni da'vogarning maxsus protsessual huquqlaridan foydalanadi ular quyidagilardir:

- da'vogar rozi bo'lgan taqdirda da'vo asosi talablari yoki predmetini o'zgartirishga;
- qo'shimcha talablar taqdim etishga;
- da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga;
- da'vo talablari bo'yicha sudga tushuntirish berishga;
- ish mazmuni yuzasidan, sud muhokamasida kelib chiqqan ayrim masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon etishga;

- da'vogarning roziligidan qat'i nazar da'vodan to'liq voz kechish yoki qisman voz kechish va hokazolar.

Huquqiy demokratik rivojlangan davlatni barpo qilish uchun qonun ustuvorligini aynan sudlarda ta'minlashda, qonunlarning aniq va og'ishmay bajarilishida, voyaga yetmagan shaxslarning qonun bilan qo'riqlanadigan buzilgan huquqlari va manfaatlarini himoya qilishdek muhim vazifani amalga oshirishda prokuratura organlarining vakolatiga berilgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan protsessual huquqlar fuqarolik protsessida prokuror ishtirokining yuksakligidan dalolat beradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, bugunki oilaviy mojarolar va kelishmovchiliklar sababli kelib chiqayotgan holatlar tufayli O'zbekistonda nikohlar kamayib, ajrimlar ortib bormoqda. O'zbekistonda **2025-yilning yanvar-iyun** oylarida **23,3 mingta nikohdan ajralish** [4] holati qayd etilgan. Bu **2024-yilning** mos davriga nisbatan **800 taga ko'pligi** ma'lum bo'ldi. **2025-yilning** birinchi yarmida **95,3 mingta nikoh qayd etilgan**, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,1 mingtaga** kamaygan .

Binobarin, **2024-yilning** birinchi yarim yilligida sudlarda bolani oilaga farzandlikka olish bilan bog'liq **2701 ta ish ko'rilgan**, undan **2543 ta da'vo arizasi qanoatlantirilgan**. Yoki, 2024-yilning birinchi yarim yilligida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan bolani oilaga farzandlikka olish bilan bog'liq **2701 ta ish ko'rilgan**. Undan **2543 ta da'vo arizasi qanoatlantirilgan**. Mazkur da'vo arizalariga muvofiq asrab olingan bolalarning umumiy soni mavjud emas. 2023-yil mobaynida esa shu toifadagi 5359 ta ish ko'rilib, tamomlangan. Shundan 5011 ta da'vo ariza qanoatlantirilgan [5].

Yoki, **oxirgi 3 yilda** 2 ming 72 nafar shaxs sudlar tomonidan **ota-onalik huquqidan mahrum qilingan**. Shundan **1 ming 777 nafari**, ya'ni **86 foizi ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortganligi** uchun javobgarlikka tortilgan [6].

Yuqoridagi, nikohdan ajralishlar, ota-onalik huquqlaridan mahrum qilinishlar, farzandlikka olish kabi ishlarning fuqarolik sudlarida ko'rib bunday ishlarning hal qilinishi oqibatda nechtdan-nechta voyaga yetmaganlarning ota-onasi, yaqin qarindoshlari bilan yashash huquqidan, ular bilan uchrashib turish, ularning oilada tarbiya olish, ularning merosiga bo'lgan huquqlaridan, va boshqa shaxsiy va shaxsiy nomulkiy, mulkiy xususiyatdagi huquqlarining amalda biroz cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

Lekin aslini olganda, bola huquqlari ularning manfaatlari har doim davlat siyosati va xalqaro darajada bo'lib kelgan.

Sababi, Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinib, u Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Bu borada bolaning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash va kafolatlash yangi Konstitutsiyada mustahkamlanishi, bu masala davlat darajasiga ko'tarilganligini yaqqol isbotidir. Jumladan, Bosh qomusimizning 44-moddasiga asosan bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan ta'lim olishga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlandi.

Shuningdek, ilk bor Konstitutsiyaning 50-moddasida ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi alohida mustahkamlandi. Eng muhimi. yangi Konstitutsiyaga Oila, bolalar, Yoshlar deb nomlangan yangi bob kiritilib, unda bolalarning maqomi yanada kuchaytirildi.

Xususan, Bosh qomusimizning 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Mazkur moddada davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlanishi ham belgilab qo'yilgan.

Asosiy qonunimizning 78-moddasida esa bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi alohida ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni doimo qo'llab-quvvatlash, huquqlarini himoya qilishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki yurtimizda bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz vorislari sifatida qadrlanib, mamlakatning katta xazinasini hisoblanadi [7; 2-3-b.].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risidagi 29.02.2024-yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat bugungi voyaga yetmaganlarga nisbatan uning ota-onalari tomonidan qilinayotgan moddiy, ma'naviy, jismoniy, psixologik zo'ravonliklarning oldini olish va ularning huquqlarini himoya qilish davlat darajasida ekanligini anglatadi.

Bugungi kunda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida tubdan islohotlar va o'zgarishlar olib borilayotgan bir paytda. Prokurorning fuqarolik ishlarini yuritishda ishtirok etishi, shuningdek fuqarolik sudlariga fuqarolarning va tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilish bo'yicha prokuror tomonidan kiritilayotgan da'vo arizalari soni va fuqarolik sud ishlarini ko'rish bo'yicha chiqarilayotgan noqonuniy sud hal qiluv qarorlari, ajrimlar, buruqlar ustidan protest shikoyatlarini keltirishi ilgari yillarga qaraganda ancha oshgan va bugunki kunda kiritilgan protestlar orqali o'zgartirilgan va bekor qilingan sud hujjatlari ham anchaginani tashkil qiladi.

Sud statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2023-yilning dastlabki 6 oyida, sudlarda prokuror ishtirokini ta'minlash maqsadida:

-34mingta jinoyat, 6 mingta fuqarolik va iqtisodiy hamda 5 mingta ma'muriy ishlarning sudlarida prokuror ishtiroki ta'minlangan;

-prokurorlar protesti asosida jinoyat ishi bo'yicha sudlarning 1 ming 338 nafar shaxsga nisbatan qarorlari, shuningdek fuqarolik sudlarining 127 ta, iqtisodiy sudlarning 79 ta va ma'muriy sudlarning 240 ta qarorlari qonunga muvofiqlashtirilgan" [8;1-b]. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori Nig'matilla Yo'ldoshev tomonidan 06.12.2023 berilgan ma'lumotga asosan, "Sudlarda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar ko'rilishida fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sudlarda qariyb 80 mingta ishning ko'rilishida prokuror ishtiroki ta'minlangan". Vaholanki, bu ko'rsatkich 2021-yildagigiga qaraganda ancha oshgan. Chunki, 2021-yil yakuni bo'yicha Sudlarda ishlar korilishida prokuror vakolatlarini taminlash maqsadida:

- 47.755 ta jinoyat, 9.899 ta fuqarolik, 3.387 ta iqtisodiy hamda 11.850 ta ma'muriy ishlarning sudlarda ko'rilishida prokuror ishtiroki ta'minlangan;

- prokurorlar protesti asosida jinoyat ishlari boyicha sudlarning 2.144 nafar shaxsga nisbatan qarorlari, shuningdek fuqarolik sudlarining 268 ta, iqtisodiy sudlarning 134 ta va ma'muriy sudlarning 556 ta qarorlari qonunga muvofiqlashtirilgan [9; 1-b].

Statistikalardan ko'rish mumkinki, har bitta farzandlikka olish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish kabi ishlarda qanchalik voyaga yetmaganlarning huquqlarini **prokuror tomonidan himoya qilinishi oqibatida** sudlarda bu bilan bog'liq ishlar bo'yicha asosli, adolatli va qonuniy qarorlar qabul qilinishiga erishilgan.

Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'rishda prokuror ishtirokini takomillashtirishning dolzarbligini huquqiy statistikalar bilan yoritib berish muhim masaladir. Prokurorning ushbu turdagi ishlardagi ishtiroki bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda davlatning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 49-moddasida har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 51-moddasida voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, FPKning 50-moddasiga ko'ra, prokuror bolalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarida ishtirok etish huquqiga hamda agar fuqaro sog'lig'ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega ekanligi qayd qilingan.

Fuqarolik sudlarida ish yuritilishida prokurorning asosiy vazifasi — bolaning manfaatlari uning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillarining manfaatlari bilan ziddiyatga kirishi mumkin bo'lgan holatlarda, davlat nomidan bolaning eng yaxshi manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Afsuski, O'zbekistonda prokurorlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda, xususan, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarda ishtirokining samaradorligi, ko'lami va sifatini aniq ko'rsatuvchi ochiq va keng doiradagi statistik ma'lumotlar cheklangan. Shunday bo'lsa-da,

mavjud umumiy statistik ma'lumotlar va tahliliy kuzatuvlar prokuror ishtirokini takomillashtirishning dolzarbligini quyidagi yo'nalishlarda asoslab beradi:

1. Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq fuqarolik ishlarining o'sish tendensiyasi:

Oilaviy ajralishlar soni: O'zbekistonda so'nggi yillarda ajrashishlar sonining ortib borishi (masalan, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan ajrashishlar sonining o'sishi) bolalarning yashash joyini belgilash, aliment undirish va ota-onalik huquqlarini amalga oshirish bo'yicha nizolarning ko'payishiga olib kelmoqda. Bunday ishlarda bolaning manfaatlari ko'pincha ota-onalarning shaxsiy nizolari ortida qolib ketadi. Prokuror ishtiroki bunday holatlarda bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Farzandlikka olish va vasiylik masalalari:

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar soni, garchi unda pasayish kuzatilsa-da, farzandlikka olish va vasiylik yoki homiylikni belgilashga doir ishlarning hajmi ham yuqoriligicha qolmoqda. Bu turdagi ishlarda prokurorning ishtiroki bolaning kelajagi, uning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilishda muhimdir.

3. Bola huquqlarining buzilishi holatlari:

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki tiklash: Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bo'yicha ishlar doimiy ravishda ko'rib chiqiladi. Bunday ishlarda prokurorning chuqur tahlili bolaning oila muhitidagi xavfsizligini va uning normal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashda juda muhim. Prokurorning faol ishtiroki ota-onalik huquqidan asossiz mahrum qilish yoki aksincha, ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilgan va ota-onalik qilish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarning asossiz ota-onalik huquqni tiklash holatlarining oldini oladi.

Mol-mulkka oid nizolar:

Nafaqat bugungi raqamli dunyoda, shuningdek o'tgan asrlarda ham meros, uy-joy yoki bolaning nomida bo'lgan boshqa mol-mulklar bo'yicha nizolarda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ota-onalar yoki boshqa yaqin qarindoshlarning bolaning mulkiy manfaatlariga zarar yetkazish holatlari uchrab turadi.

Shuningdek, bugungi kunda ushbu sohada yetarlicha muammolar va xatoliklar mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat;

Sud amaliyotidagi xatoliklar:

Xususan, prokuror ishtirok etmagan yoki uning ishtiroki yuzaki bo'lgan fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlarining keyinchalik yuqori instansiyalar tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi holatlari prokuror ishtirokining sifatini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Bunday bekor qilinishlar ko'pincha dalillarni to'liq o'rganmaslik, voyaga yetmaganlarning manfaatlarini yetarlicha hisobga olmaslik bilan bog'liq bo'ladi. Aniq statistika bo'lmasa-da, yuqori instansiya sudlarining har qanday qarorini bekor qilishda protsessual yoki moddiy huquq normalarining buzilishi aniqlanadi, bu esa prokuror nazoratining yetarli emasligidan dalolat berishi mumkin.

Mutaxassislarning yetishmasligi:

Fuqarolik ishlarida, xususan, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi nizolarni ko'rishda prokurorlarning oila huquqi, bolalar psixologiyasi va pedagogikasi bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalarini oshirish zaruriyati mavjud. Bu boradagi statistik tahlillar prokuror kadrlarining ixtisoslashuvi va malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq fuqarolik ishlarining fuqarolik sudlarida kundan kunga o'sib borayotgani, bu toifadagi ishlarining bolalar hayotiga chuqur ta'siri va sud amaliyotida uchrab turadigan kamchiliklar prokuror ishtirokini takomillashtirishning kechiktirib bo'lmas dolzarbligini tasdiqlaydi. Prokurorlarning bu boradagi faoliyatini kuchaytirish O'zbekistonda bola huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni fuqarolik sudlarida ko'rishda prokurorning vakolatini ta'minlash maqsadida prokuror sudlarning mustaqilligi va faqatgina qonunga bo'ysunish tamoyiliga qat'i rioya etib, fuqarolik ishlarini yurituvchi sudlar tomonidan odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashadi va sud protsessida prokuror va advokatning tengligi tamoyilini buzmaganda holda protsessda ish yuritadi.

Yuqoridagi dolzarbliklarni hisobga olgan holda, prokuror ishtirokini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Maxsus prokurorlarni tayinlash: Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq fuqarolik ishlari bo'yicha ixtisoslashgan prokurorlarni tayinlash va ularning malakasini oshirish.

2. Huquqiy ma'lumot bazasini takomillashtirish: Prokurorlarga voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy qonunchilikdagi yangiliklar, sud amaliyoti haqida doimiy ma'lumotlar yetkazib berish.

3. Tashabbuskorlikni oshirish: Prokurorlarning FPKning 51-moddasida ko'rsatilgan huquqlaridan yanada faol foydalanishini ta'minlash, xususan, o'zining tashabbusi bilan nizolar yuzasidan xulosa berish tartibini kuchaytirish.

4. Vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish: Bolalarning manfaatlarini himoya qilishda vasiylik va homiylik organlari bilan o'zaro ma'lumot almashinuvini va hamkorlikni yanada samarali tashkil etish.

5. Nazorat va monitoring: Prokurorlarning voyaga yetmaganlar bilan bog'liq fuqarolik ishlaridagi ishtiroki samaradorligini doimiy monitoring qilish va tegishli statistiklarni shakllantirish tizimini joriy qilish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 29.08.2021-yildagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 22.01.2018-yildagi Fuqarolik Protsessual Kodkesi.
4. <https://lex.uz/docs/-106197>
5. <https://lex.uz/uz/docs/-1297315>.
6. <https://lex.uz/docs/-3517337>
7. <https://oyina.uz/uz/posts/28950>
8. <https://kun.uz/news/2024/10/08/yarim-yilda-farzandlikka-olish-boyicha-qancha-ariza-qanoatlantirilgani-aytildi>
9. <https://anhor.uz/uzl/news/senat-3-yilda-2-ming-72-nafar-shaxs-ota-onalik-huquqidan-mahrum-qilingan/>
10. <https://parliament.gov.uz/articles/1889>
11. <https://president.uz/oz/lists/view/6961>

12. <http://auz.uz/news/bosh-prokuratura-tankidiy-materiallarni-urganish-natizhasida-29-zhinoyat-ishi-kuzgatildi>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).